

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FRAZEOLOGIK TERMINLARNING O'RNI.

Abdimôminova Dildora *TerDU talabasi*
Ergasheva Dilrabo *ilmiy rahbar*

Annotatsiya: *Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida gaplarni doimgidanda ta'sirliroq chiqishi uchun turli so'z birikmalaridan foydalaniladi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning asl ma'nosi, o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan. O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida qo'llanilgan namunalar kiritilgan.*

Kalit so'z: *Frazeologiya, turg'un birikma, ta'sirchanlik, obrazlilik, qoliplashtirish, noziklashtirish, nafislashtirish.*

Bir qarashda til birliklarining ma'nosi oddiyga o'xshaydi, biroq har bir sathda birliklarning o'z ma'no sirlari bordir. O'zbek tilshunosligida frazeologiya degan bo'lim mavjud bo'lib, bu atama lotin tilida prases-ifoda, logos-talimot degan ma'noni beradi. Frazeologiya atamasi oddiy shaxslar uchun tilshunos qabul qilgan ma'noni anglatmaydi ya'ni bu so'zning ma'nosi ular uchun mavhum, lekin ular kunlik so'zlashuv jarayonida albatta undan foydalanishadi. Chunki frazeologiya tilda 2 yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikma ya'ni iboradir. Har bir inson o'z nutq faoliyatida gaplari ta'sirli, nozik va maqsadli ifodalanishi uchun albatta iboradan foydalanishadi. Iboralarning 6ta o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bular:

1. Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda so'zga teng keladi. Masalan:og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi. Ushbu ibora lapashang, bo'sh ma'nosini beradi.

2. Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlik, obrazlilikka ega bo'ladi. Misol uchun qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasini o'qigan kishida o't yeb yurgan qo'y va uning og'zidagi cho'p ma'nosi ifodalanadi biroq asl mazmun "yuvosh"dir.

3.Iboralar gap tarkibida yaxlit ko'rinishda 1ta so'roqqa javob bo'ladi va 1ta gap bo'lagi vazifasini bajaradi ya'ni yulduzni benarvon uradigan yigit-qanday yigit?

4.Ayrim iboralar tarkibini o'zgartirish, boshqa so'z kiritish mumkin

Ko'zi tushdi-ko'zi menga tushdi

5.Iboralar ko'proq badiiy va so'zlashuv uslubida ishlatiladi va undan samarali foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

6. Ibora shaklida faqat birikma emas balki dili siyoh bo'ldi, ishtahasi ochildi kabi gaplar ham kelishi mumkindir.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos solgan Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlab shakllanishi uchun rus olimlari Potebnya, Sreznevskiy, Shaxmatov asarlari asosiy rol o'ynaydi Frazeologiyalarning grammatik,

semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V. Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. V. Jukov esa frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo'chqortoyev, A. Rafiyevkabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan. Olimlar o'rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So'zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o'rganilganligi ahamiyatlidir. Lekin badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan hisoblanadi. Badiiy uslubda asarni nafislashtirish, kitobxonga ta'sirchanligini oshirish maqsadida A. Qodiriy, A. Qahhor, H. Olimjon, Oydin, S. Ahmad o'z asarlarida samarali foydalanishgan va keyinchalik asarlarning frazeologik tarkibi tadqiq etilgan.

Iboralar badiiy asarlar tarkibida kelib, o'xshatishlar singari asarga badiiylik, ta'sirchanlik qo'shib, adibning so'z qo'llash mahoratini nomoyon qilib, o'quvchini o'ziga jalb etadi. Yozuvchi badiiy matnda frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Biror voqea-hodisani obrazli, ta'sirli ifodalash uchun: tili uzun, ilonni yog'ini yalagan, dunyoni suv bossa, uning to'pig'iga ham chiqmaydigan;

2. Turli holatlarni baholash uchun; frazeologizmlar salbiy va ijobiy bo'yoqqa ega: Uning ko'zlari olayib o'rnidan turolmay qoldi;

3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: Xudoga shukur, ko'ngli joyiga tushdi;

4. Nutqda ekspressivlikni («ekspressiya» so'zi aslida lotincha so'z bo'lib, «kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy» degan ma'nolarni anglatadi. Nutqning ta'sirchanlik xususiyatini ifodalaydi) ifodalash uchun;

5. Badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun.

Quyida badiiy asarlar tarkibida kelgan iboralarni ko'rib o'tamiz;

*Ariq qazib bo'lmasa, yer chopib bo'lmasa, o'zimizniyam patagimizda qurt turibdi. ("Ikki eshik orasi" O'.H)

*Yuk ko'targan odam yuzaga chiqadi.

*Baliq boshdan sassiydi. Ammo uni dumidan tozalaydilar.

*Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq

*Odam ko'katni ham yeydi, kiyikni ham yeydi. Ko'ngil hushi uchun sherni ham o'ldiradi, keyin urish qilib bir-birini boshini yeydi. ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar" O'.H)

*Hatto bir asrdan keyin ham yangiday turadi deb o'g'iz ko'pirtirgan.

*Qo'lyozmalarni portfelimda taxlam-taxlam qilib boylab yuradigan bo'ldim. Choydanog'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi. ("Puankare" A.Y)

*Kechqurun o'g'zim qulog'imga yetgudek bo'lib, bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim. ("Dunyoning ishlari" O'.H)

*Alimardon yaproqlarining pirpirab uchishinitomosha qila qila pinakka ketdi. ("Bahor qaytmaydi". X.T)

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Frazeologizm va so'z bo'lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo'lmaydi. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o'qib, o'rganish va ularni tahlil qilish, tasniflash ma'lum ma'noda o'z xalqining tili haqida ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Frazeologizmlar so'zlovchi nutqini ta'sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

Biz so'zlashuv nutqimizda nega frazeologik birliklardan foydalanishimiz kerak, u bizga nima beradi? Ushbu savollarga misol orqali javob qaytaramiz. Xo'sh, agar ikki do'stdan biri ikkinchisiga xiyonat qilsa, u bilan urushib o'z madaniyatimiz va milliyligimiz yo'qotgandan ko'ra, "Do'stim senga ishongan edim, orqamdan pichoq urdingku" deyilsa so'z ta'sirli va mazmunli chiqadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologik iboralardan o'z o'rnida unumli foydalanish natijasida biz madaniyatimiz chegarasidan chetlamagan holda dilimizdagi gap-so'zlarni qoliplashtirib, noziklashtirib ifodalagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z.-Toshkent: Fan, 1993.
2. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. Sharq nashriyoti-2012
3. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.-Toshkent, O'zbekiston, Fan, 1983.
5. Abdurahmonov G', Mamajonov N. O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, O'zbekiston, 1985.
6. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.
7. A. Yo'ldoshev. Puankare. "Jahon adabiyoti"jurnali 2012,9-son.